



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№2(2)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 230 sahifa,  
2-fevral, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Kasbiy mahorat va tajribalarni rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari .....	22
<b>Yo'ldasheva Feruzaxon Shavkatbekovna</b>	
O'zbek tili darslarida 5E modelini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish: Chimboy tumani 36-sonli ixtisoslashtirilgan maktab misolida .....	26
<b>Kojamuratova Ulbosin Punkitbaevna</b>	
Shaxs ijtimoiy faolligi: tushuncha va tahlil.....	29
<b>Baxriyeva Nargiza Axmadovna</b>	
Fiziognomika va psixologik yondashuvlar asosida portret qalamtasviri ta'limini takomillashtirish.....	33
<b>Babadjanov Axmadjan Xudayberdiyevich</b>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish .....	37
<b>Nusharov Bobir Bolbekovich</b>	
Личностные характеристики как ассимиляция системы отношений младших школьников и предмет воспитательного воздействия учителя .....	41
<b>Олимова Азиза Кахрамоновна</b>	
"Vitagen ta'lim texnologiyalari" asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda perseptiv qobiliyatni rivojlantirishga o'rgatishning didaktik imkoniyatlari .....	47
<b>Tursunboyeva Kamola Iloxmjon qizi</b>	
Ekologik ta'lim va tarbiya asosida talabalarda ekoturistik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari.....	50
<b>Kamolov Baxtiyor Xasanboyevich</b>	
Individual ta'lim trayektoriyasi: maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv nutq buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlari .....	54
<b>Fayziyeva Nozima Oybek qizi</b>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish samaradorligi .....	59
<b>Ibragimova Nozima Ulug'bekovna, Pardayeva Hosila Qudratulla qizi</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining kreativ roli .....	64
<b>Botirova Lobar Kamolovna</b>	
O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.....	69
<b>Kaipova Tazagul, Kaipova Elmira</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy kasb-hunarlariga qiziqtirishda integrativ usullardan foydalanish .....	73
<b>Ergasheva Nigora Erkinovna</b>	
Proposals for the Development of Education in Teaching Musical-Historical and Theoretical Subjects .....	76
<b>Sobirova Gulkhayo Aktamjonovna</b>	
Raqamli ta'lim sharoitida talabalarda mediakompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	81
<b>Rustemov Abseit Trijan o'g'li</b>	
Hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mazmuni .....	85
<b>Baxramova O'ramol Uralovna</b>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda nazariy asoslanish mohiyati.....	88
<b>Boxodirova Muxlisa Xoljigitovna</b>	
Zoologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarining ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlari .....	92
<b>Dushekeeva Nasiba Rustembaevna, Arepbaev Islambek Muratbaevich</b>	
Ingliz tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning roli .....	96
<b>Ergasheva Mehriyona</b>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining tasviriy ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	100
<b>Jummayeva Sayyora Shokir qizi</b>	



The Role of Digital Technologies and Virtual Reality in Modern English Teaching Methodologies .....	104
<i>Seilkhanova Rita Nurniyazovna, Kalbaeva Mexriban Elbrus qizi</i>	
Sog'lom separatsiya orqali yoshlar sog'lig'ini mustahkamlash: tibbiy-psixologik yondashuvning empirik tahlili .....	109
<i>Mavlyanova Surayo Sultanaliyevna</i>	
Badiiy-tarixiy meros asosida pedagog shaxsini tarbiyalash: nazariya va amaliyot uyg'unligi .....	112
<i>Qodirova Mavluda Maxodir qizi</i>	
Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations .....	116
<i>Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida giperaktiv bolalar bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari .....	123
<i>Raimqulova Sojida Abdusaid qizi</i>	
Qandli diabet bilan og'rikan bemorlarga pedagogik yordam ko'rsatish tizimi.....	126
<i>Shermatova Yakut Sabirovna</i>	
O'smirlar o'rtasida kiberbulling .....	129
<i>Tashbekova Aziza Mirsuxbatovna</i>	
Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun tyutorlik yordamini tashkil etish .....	132
<i>Tolipova Pokiza Xasan qizi, Isamuxamedova Dildora Raxmatilayevna</i>	
Zamonaviy maktablarda xavfsizlik madaniyatining roli.....	135
<i>Turdiyeva Zilola Jalilovna</i>	
Global akademik reyting va raqobat muhitida xalqaro olimpiadalarning o'rni .....	138
<i>Xalikova Umida Mirovna</i>	
Tarbiyachining bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonidagi o'rni .....	143
<i>Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Rahimova Umida Abdurasul qizi</i>	
Biologiya darslarida TIMSS topshiriqlarini integratsiyalash.....	148
<i>Zayniyev Suxrobjon Islombek o'g'li, Komiljonova Muslima Shuxrat qizi</i>	
О трансверсальных компетенции воспитателя дошкольного образования.....	153
<i>Садыкова Шоиста Акбаровна, Назарматова Дилшода Умаралиевна</i>	
Talaba-yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	156
<i>Kushakova Gulnora Egamkulovna</i>	
Yosh oilalarda ajralishlarni bartaraf etishning pedagogik mexanizmlarini aksiologik yondashuv asosida takomillashtirish .....	160
<i>Normurodova Gulnora Ikromovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari .....	164
<i>Mamadaliyeva Dildora Alisher qizi</i>	
Psixologik zo'ravonlikning o'smirlarda destruktiv xulq shakllanishiga ta'siri .....	168
<i>Jurakulova Dildora Ziyadullayevna</i>	
Maktab maslahatchilarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari .....	172
<i>Kazakova Saxiba Abdurayimovna</i>	
Kichik maktab yoshi o'quvchilarida ongli intizomni tarbiyalashning samarali usullari.....	178
<i>Ziyayev Adxamjon</i>	
Lingvokulturologiyada konsept tushunchasining nazariy talqini .....	182
<i>Jo'rayeva Nozima Nozim qizi</i>	
Sport takomillashuvi bosqichida voleybolchilarning sakrash qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi .....	185
<i>Shaimardanov Sherbek Abdurashid o'g'li</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nutq rivojlanishining pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	189
<i>Teshaboyeva Feruza Raximovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasiga oilaning katta avlodi va ularning ta'siri.....	192
<i>Ashirova Sojida Baxromovna</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini differensial yondashuv asosida o'qitishning tarixiy pedagogik ildizlari .....	196
<i>Bekmuratova Shoxida Ne'matjonovna</i>	



MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Talabalarda yozuv kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish .....	200
<a href="#">Jabborova Salomat Abdijalilovna</a>	
Integrativ o'qitish asosida bo'lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni.....	204
<a href="#">Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna</a>	
6-7 yoshli bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish .....	208
<a href="#">Kasimova Dilrabo Baxadirovna, Omonxonova Muzayamxon Sarvar qizi</a>	
Bo'lajak surdopedagoglarni koxlear implantli bolalar bilan ishlashga tayyorlashda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasi .....	213
<a href="#">Raximova Xurshidaxon Sadikovna</a>	
Yevropa muhandislik ta'limi tajribasi asosida texnika yo'nalishlari talabalarida texnik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari .....	217
<a href="#">Xalikova Nargiza Abduvaliyevna</a>	
Tilning obrazli kuchi: perifrastalar turlari va xususiyatlari .....	221
<a href="#">Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna</a>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashning pedagogik va psixologik xususiyatlari.....	224
<a href="#">Zayirkulova Nozima Ilyas qizi</a>	

# 6-7 YOSHLI BOLALARDA MEHNATSEVARLIK XISLATLARINI SHAKLLANTIRISHDA XALQ OG'ZAKI IJODIDAN FOYDALANISH

**Kasimova Dilrabo Baxadirovna**

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti  
"Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" fakulteti  
Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi

**Omonxonova Muzayamxon Sarvar qizi**

"Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi" yo'nalishi 4-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada yosh avlodni har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy faol va mehnatsevar shaxs sifatida tarbiyalash, 6-7 yoshli bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirish, ularning keyingi ta'lim bosqichlariga muvaffaqiyatli moslashuvi hamda shaxs sifatida kamol topishi, 6-7 yosh davrida bolalarda mehnatga munosabat, mas'uliyat, intizom va irodaviy sifatning shakllanishi, shuningdek, mazkur yosh davrida mehnatsevarlik xislatlarini maqsadli va tizimli rivojlantirishning muhim vazifalari haqida fikr-mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** yetuk, mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy faol va mehnatsevar shaxs, mas'uliyat, intizom, irodaviy sifatlar, mehnatsevarlik xislatlari.

**Abstract:** This article examines the key tasks of educating the younger generation as comprehensively mature, independently thinking, socially active, and hardworking individuals, including the development of hardworking qualities in 6-7-year-old children, their successful adaptation to subsequent stages of education and personal maturity, the formation of a positive attitude toward work, responsibility, discipline, and volitional qualities at the age of 6-7, as well as the purposeful and systematic development of hardworking traits during this period.

**Key words:** mature, independently thinking, socially active, and hardworking individuals; responsibility, discipline, volitional qualities; hard work.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются важные задачи воспитания молодого поколения как всесторонне зрелой, самостоятельно мыслящей, социально активной и трудолюбивой личности, формирование трудолюбивых качеств у детей 6-7 лет, их успешная адаптация к последующим этапам обучения и личностная зрелость, формирование у детей в возрасте 6-7 лет отношения к труду, ответственности, дисциплины и волевых качеств, а также целенаправленное и систематическое развитие трудолюбивых качеств в данном возрастном периоде.

**Ключевые слова:** зрелая, самостоятельно мыслящая, социально активная и трудолюбивая личность, ответственность, дисциплина, волевые качества, трудолюбие.

## KIRISH

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti sharoitida yosh avlodni har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy faol va mehnatsevar shaxs sifatida tarbiyalash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, 6-7 yoshli bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirish ularning keyingi ta'lim bosqichlariga muvaffaqiyatli moslashuvi hamda shaxs sifatida kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha yosh davrining oxirgi bosqichi bo'lgan 6-7 yosh davrida bolalarda mehnatga munosabat, mas'uliyat, intizom va irodaviy sifatlar shakllanadi. Shu sababli ushbu yosh davrida mehnatsevarlik xislatlarini maqsadli va tizimli ravishda rivojlantirish pedagogik jarayonning dolzarb masalalaridan biridir. Mazkur jarayonda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Xalq og'zaki ijodi – ertaklar, maqollar, topishmoqlar va qo'shiqlar orqali bolalarda mehnatga hurmat, halollik hamda sabr-toqat kabi axloqiy fazilatlar tabiiy va qiziqarli tarzda shakllanadi. Milliy qadriyatlar asosida olib borilgan tarbiya bolalar ongiga chuqurroq singib, ularning xulq-atvorida barqaror sifatning vujudga kelishiga xizmat qiladi.



Hozirgi globallashuv va axborot texnologiyalari rivojlangan sharoitda bolalarning xalq og'zaki ijodiga bo'lgan qiziqishi sustlashib borayotgani, mehnat tarbiyasida ko'proq nazariy yondashuvning ustunlik qilayotgani kuzatilmog'da. Shu bois xalq og'zaki ijodidan samarali foydalanish yo'llarini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash va amaliyotga joriy etish dolzarb masala hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, 6-7 yoshli bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish masalasi maktabgacha ta'lim tizimi uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

6-7 yoshli bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish mavzusi bo'yicha tadqiqot olib borgan o'zbek olimlari va tadqiqotchilardan Farangiz Erkinova hamda Muqaddas Azimova ta'lim va tarbiya jarayonida xalq og'zaki ijodi hamda qadimiy adabiyotlar namunalaridan mehnat tarbiyasini shakllantirish masalalarini o'rganib, xalq adabiy merosi orqali mehnatsevarlik va axloqiy qadriyatlarini tarbiyalash jarayonini tahlil qilganlar; Amirqulova Umida va Djaborova Shoira "Mehnatsevarlik konseptini ifodalovchi o'zbek maqollari" mavzusida struktura va semantik tahlil olib borib, xalq og'zaki ijodida mehnatsevarlik tasvirini lingvistik nuqtayi nazardan yoritganlar; Shoxista Sotiboldiyeva va Nilufar Sadarova xalq og'zaki ijodining ta'lim jarayonidagi ahamiyati haqida pedagogik maqola mualliflari sifatida klassik og'zaki ijod namunalarini bolalarning bilim va xulqini shakllantirish vositasi sifatida baholaganlar.

Xorijiy olimlar Supardjo, Padmaningsih va Sujono folklor ertaklarini bolalar tarbiyasida xarakter ta'limi vositasi sifatida o'rgangan tadqiqotlarida og'zaki ijodning tarbiyaviy rolini ko'rsatganlar (mehnatsevarlik kabi xislatlarni shakllantirish uchun motivatsiya berishini ta'kidlaganlar). Ushbu manbalar to'g'ridan-to'g'ri 6-7 yoshdagi bolalar tarbiyasi bo'yicha bo'lmasa ham, xalq og'zaki ijodi va xalq adabiyotini ilmiy yoritishda asos sifatida keng qo'llaniladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Davlatimiz rahbari bolalar tarbiyasi jarayonida o'z ishini puxta biladigan, malakali va har bir bolaga individual yondasha oladigan pedagog-kadrlarni jalb qilgan holda, go'daklik davridanoq fikr va tafakkurni to'g'ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim va ma'naviyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash mushkul bo'lishini, yosh avlod tarbiyasining asosiy bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaganlar. Maktabgacha ta'lim tashkilotida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlari hayot ostonasining eng qiziqarli bosqichlaridan biridir.

Dunyoni, atrof olamni, mehnatsevarlik va ijodkorlikni anglash imkoniyatlari ochilishi bilan birgalikda bu yosh vakillari sekin-astalik bilan eng muhim hodisaga, ya'ni maktab ta'limiga tayyorgarlik ko'radilar. Bu yosh davri nafaqat qiziqarli, balki ota-onalar va tarbiyachi-pedagoglar uchun ham birdek mas'uliyat talab etadi. 6 yoshgacha bo'lgan bolalarning kayfiyati odatda tez o'zgaruvchan bo'ladi, bunga sabab ularning hissiyotlarga bo'ysunishidir, bu esa tabiiy jarayon hisoblanadi. 7 yoshdan boshlab bolaning aqliy rivojlanishi jadallik bilan oshadi. Bu yosh vakillari hissiyotlarsiz ham o'zlari uchun zarur bo'lgan jarayonlarni tushuntira oladilar. Aynan shu yoshda bolalar o'zlarini shaxs sifatida anglashni boshlaydilar, ularda noodatiy argumentlarga asoslangan fikrlar paydo bo'ladi. Mehnatsevarlik – ma'naviy fazilat sifatida shaxsning ishchanligi, mehnatni xush ko'rish va insonning mehnatga munosabatini ifodalaydi. Uning natijalari erishilgan yutuq, qo'lga kiritilgan hosil yoki mahsulotning miqdori va sifati bilan o'lchanadi. Shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash zarur.

Mehnatsevarlikning jamiyatdagi o'rni ijtimoiy taraqqiyotga bevosita ta'sir ko'rsatadi, boqimandalikning avj olishi esa mamlakatni inqirozga olib keladi. Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida dehqonchilikni tavsiflar ekan, mehnatning ijtimoiy hayotdagi rolini shunday ta'riflaydi: "Olamning obodligi dehqonlardan, mehnat ahli shodligi ulardan". Mehnatsevarlik shaxs va jamiyat ma'naviyati tarkibidagi muhim shartlardan biri hisoblanadi. Mehnatsevarlik – bu bolaning ishni oxirigacha bajarishga intilishi, mas'uliyatni his qilishi, sabr-toqatli bo'lishi, foydali faoliyatga ijobiy munosabatda bo'lishi kabi sifatlarni o'z ichiga oluvchi muhim shaxsiy xislatdir. 6-7 yoshli bolalarda mehnatsevarlikni shakllantirish keyingi maktab ta'limiga psixologik va ijtimoiy tayyorgarlikni ta'minlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlar natijasida bolalarda mehnatga nisbatan ijodiy munosabat va mehnat qilish ishtiyoqi shakllanadi. Kattalarning mehnat faoliyatiga taqlid qilish dastlab bolalarning o'yinlarida namoyon bo'ladi. Bolalar kattalarning mehnat faoliyatini o'z o'yinlarida takrorlash bilan cheklanib qolmay, balki kattalar mehnatida bevosita qatnashishga harakat qila boshlaydilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatsevarlikni tarbiyalashda xalq ertaklari va maqollarining ijtimoiy-g'oyaviy mazmuni hamda tarbiyaviy ta'siri muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq og'zaki ijodi asrlar davomida shakllanib, hayotiy tajriba, axloqiy qadriyatlar va mehnatga munosabat aks etgan bebaho tarbiya manbaidir. U bolalar ongiga o'yin, obraz va qiziqarli syujetlar orqali tez va oson singadi.

Ertak – xalq og'zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri bo'lib, to'qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht hamda maishiy xarakterdagi epik badiiy asardir. Maktabgacha yoshdagi bolalarga aytib, o'qib yoki hikoya qilib beriladigan ertaklardan ko'zlangan maqsad, birinchidan, bolalarni insoniy fazilatlar asosida tarbiyalash, ikkinchidan esa ularning dunyoqarashini o'stirish, diqqat, xotira, tasavvur va motivlarini shakllantirishdan iboratdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy va psixik rivojlanishiga mos, o'zida ijobiy ma'naviy-axloqiy sifatlarni mujassam etgan ertaklar klassifikatsiya qilingan. Bu ertaklarda o'rtoqlik va do'stlikning olijanoblighi, kamtarlik, saxiylik, to'g'riso'zlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik fazilatlarini targ'ib qilinadi hamda bolalar ijobiy obrazlardan namuna olishga undaladi. Maqol xalq og'zaki badiiy ijodining keng tarqalgan janrlaridan biridir. Maqollar hayotiy tajribalar asosida maydonga keladi va asrlar davomida og'izdan-og'izga o'tib kelgan. Ularda xalqning dunyoqarashi, jamiyat va mehnatga munosabati, ota-onaga hurmat va Vatanga sadoqat motivlari mujassamlashgan. Shuningdek, maqollarda xalq orzu-umidlari va insonparvarlik hislari ifodalanadi. Maqollar mavzu jihatidan boy va rang-barangdir. Ularda ona Vatanni sevish, do'stlik, birodarlik, ahillik va birdamlik g'oyalari, yaxshilik, halollik va rostgo'ylik ulug'lanadi, yomonlik va yolg'onchilik esa qoralanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlarda maqollardan foydalanish bolalarning nutq malakasini shakllantiradi, hayotiy tushunchalarini boyitadi va insoniy fazilatlarini singdiradi. Bu ko'nikmalar, asosan, yuqori va tayyorlov guruhlarida maqsadli yo'nalishda hosil qilinadi. Vazifalarning aniq mazmuni bolalarning yosh imkoniyatlariga bog'liq. O'yin faoliyati orqali bola ilk tasavvur ko'nikmalarini shakllantiradi. Aynan mantiqiy kompyuter o'yinlari 6-7 yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. 6-7 yoshli bolaning shaxsiy rivojlanishi atrof olamning tuzilishi va undagi o'z o'rnini anglash kabi ikki muhim omilni o'z ichiga oladi.

Qizlarda og'ir-bosiqlik jarayoni kuzatilsa, o'g'il bolalarda faollik kuchayadi. 6-7 yosh vakillari gender tamoyiliga muvofiq o'yin tanlaydilar. Qizlar “do'kon”, “qo'g'irchoq”, “maktab”, o'g'il bolalar esa “poyga”, “hayvonlar” kabi o'yinlarni ma'qul ko'radilar. Maktabga tayyorlov guruhidagi tarbiyalanuvchilarning ixtiyoriy diqqati, ko'rish va tinglash orqali eslab qolish ko'nikmalari yuqori darajada rivojlangan bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.12.2020-yildagi 802-son qaroriga muvofiq Maktabgacha ta'lim va tarbiya davlat standarti tasdiqlangan. Ushbu qarorga ko'ra, 6-7 yoshli bolaning rivojlanish sohalarini va umumiy muhim kompetensiyalari belgilangan bo'lib, ular kommunikativ, o'yin, ijtimoiy va bilish kompetensiyalarini hamda jismoniy, ijtimoiy-hissiy, nutqiy, bilish va ijodiy rivojlanish yo'nalishlarini qamrab oladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

6-7 yoshli bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirish maktabgacha ta'lim tizimining muhim tarbiyaviy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu yosh davrida bolalarda mehnatga munosabat, mas'uliyat, irodaviy barqarorlik va mustaqil faoliyatga intilish kabi sifatlar faol shakllanadi. Shu bois mehnatsevarlikni shakllantirish jarayonini maqsadli, tizimli va yosh xususiyatlariga mos tarzda tashkil etish zarur.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xalq og'zaki ijodi namunalari – ertaklar, maqollar, topishmoqlar, qo'shiqlar va rivoyatlar bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirishda samarali tarbiyaviy vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu vositalar orqali bolalar mehnatning ijtimoiy ahamiyatini angelaydi, mehnatkashlik va dangasalik o'rtasidagi farqni tushunadi hamda ijobiy xulq-atvor namunalari bilan tanishadi.

Xalq og'zaki ijodidan foydalanish bolalarda nafaqat mehnatsevarlikni, balki milliy qadriyatlarga hurmat, axloqiy poklik, sabr-toqat va jamoaviylik kabi fazilatlarini ham rivojlantiradi. Ayniqsa, tarbiyaviy jarayonni amaliy mehnat faoliyati bilan uyg'unlashtirish bolalarda mehnatga nisbatan barqaror ijobiy munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida tarbiyachining roli muhim ekanligi aniqlandi. Tarbiyachi xalq og'zaki ijodi namunalari to'g'ri tanlashi, ularni tarbiyaviy maqsad bilan izchil qo'llashi va bolalarni faol fikrlashga undashi lozim. Bunday yondashuv tarbiyaviy jarayon samaradorligini oshiradi. Umuman olganda, 6-7 yoshli bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish pedagogik jihatdan asoslangan, samarali va istiqbolli yo'nalish bo'lib, u maktabgacha ta'lim amaliyotida keng joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.

Mehnatsevarlikni shakllantirishda foydalaniladigan xalq og'zaki ijodi janrlari quyidagilardan iborat:

- maqollar bolalarda qisqa, lo'nda va ta'sirchan fikr orqali mehnatga hurmat uyg'otadi. Misollar: “Mehnat qilgan to'yadi”, “Ishlagan tishlaydi”, “Mehnat – baxt keltirar”. Tarbiyachi maqol mazmunini bolalar bilan suhbat orqali ochib beradi.
- ertaklarda mehnatkash va dangasa qahramonlar taqqoslanadi. Misollar: “Zumrad va Qimmat”, “Halollik”, “Boy ila kambag'al”. Ertakdan so'ng qahramonlarning xatti-harakatlari muhokama qilinadi, “Kim mehnatkash edi?” degan savollar beriladi.
- topishmoqlar bolalarda mehnat qurollari va jarayonlariga qiziqish uyg'otadi. Misol: O'zi kichik, ishga pishiq (javob: bolg'a).



d) qo'shiqlar va laparlarda mehnat qo'shiqlari bolalarda mehnatdan zavqlanish hissini uyg'otadi. Masalan, tozalash paytida aytiladigan qo'shiqlar, o'yin jarayonidagi ritmik aytilimlar.

Xalq og'zaki ijodini faqat tinglash emas, balki amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish muhim: ertakdan keyin rolli o'yin, maqoldan so'ng kichik mehnat topshirig'i, jamoaviy ishlar (gullarni sug'orish, o'yinchoqlarni yig'ish). Tarbiyachi xalq og'zaki ijodini yoshga mos tanlashi, bolalarni faol fikrlashga undashi, mehnatni majburiyat emas, qadriyat sifatida ko'rsatishi lozim. Bolalarning mehnat faoliyatlarini o'zida qamragan mashg'ulotlar asosan maktabgacha yosh davridan boshlanadi. Bu yoshda bolalarning mehnati juda sodda va elementar bo'lsa ham, ularning psixik taraqqiyotida juda katta ahamiyatga ega.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, 6-7 yoshli bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirish maktabgacha ta'lim tizimining muhim tarbiyaviy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu yosh davrida bolalarda mehnatga munosabat, mas'uliyat, irodaviy barqarorlik va mustaqil faoliyatga intilish kabi sifatlar faol shakllanadi. Shu bois mehnatsevarlikni shakllantirish jarayonini maqsadli, tizimli va yosh xususiyatlariga mos tarzda tashkil etish zarur. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xalq og'zaki ijodi namunalari - ertaklar, maqollar, topishmoqlar, qo'shiqlar va rivoyatlar bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirishda samarali tarbiyaviy vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu vositalar orqali bolalar mehnatning ijtimoiy ahamiyatini anglaydi, mehnatsevarlik va dangasalik o'rtasidagi farqni tushunadi hamda ijobiy xulq-atvor namunalari bilan tanishadi. Xalq og'zaki ijodidan foydalanish bolalarda nafaqat mehnatsevarlikni, balki milliy qadriyatlarga hurmat, axloqiy poklik, sabr-toqat va jamoaviylik kabi fazilatlarini ham rivojlantiradi. Ayniqsa, tarbiyaviy jarayonni amaliy mehnat faoliyati bilan uyg'unlashtirish bolalarda mehnatga nisbatan barqaror ijobiy munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida tarbiyachining roli muhim ekanligi aniqlandi.

Tarbiyachi xalq og'zaki ijodi namunalari to'g'ri tanlashi, ularni tarbiyaviy maqsad bilan izchil qo'llashi va bolalarni faol fikrlashga undashi lozim. Bunday yondashuv tarbiyaviy jarayon samaradorligini oshiradi. Umuman olganda, 6-7 yoshli bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish pedagogik jihatdan asoslangan, samarali va istiqbolli yo'nalish bo'lib, u maktabgacha ta'lim amaliyotida keng joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.

6-7 yoshli bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodidan samarali foydalanish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalarni berish mumkin:

- ta'lim-tarbiya jarayoniga xalq og'zaki ijodini tizimli joriy etish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertaklar, maqollar, topishmoqlar va qo'shiqlardan faqat epizodik emas, balki reja asosida, bosqichma-bosqich foydalanish tavsiya etiladi;
- yosh xususiyatlarini hisobga olish, 6-7 yoshli bolalar uchun xalq og'zaki ijodi namunalari sodda, obrazli va aniq g'oyaga ega bo'lishi lozim, mehnatga da'vat etuvchi, ijobiy qahramonlar ishtirok etgan asarlarga ustuvorlik berish zarur;
- ertak va maqollarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, xalq ertaklari va maqollardan so'ng bolalarga kichik mehnat topshiriqlari (o'yinchoqlarni yig'ish, gullarga qarash, sinfni tartibga keltirish) berilishi mehnatsevarlikni mustahkamlashga xizmat qiladi;
- rolli o'yinlardan keng foydalanish, ertaklar asosida tashkil etilgan rolli o'yinlar orqali bolalarda mehnat jarayoniga qiziqish va jamoada ishlash ko'nikmalari rivojlantiriladi;
- oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligini kuchaytirish, ota-onalarga xalq og'zaki ijodi asosida mehnat tarbiyasi berish bo'yicha tavsiyalar berish, uy sharoitida ertak aytilish va mehnat faoliyatiga bolalarni jalb etish maqsadga muvofiq;
- tarbiyachilarning metodik kompetensiyasini oshirish, tarbiyachilar uchun xalq pedagogikasi va og'zaki ijod namunalariidan foydalanish bo'yicha seminar hamda treninglar tashkil etish tavsiya etiladi;
- didaktik materiallar ishlab chiqish, mehnatsevarlikka oid ertaklar, maqollar va topishmoqlar asosida rasmlar, kartochkalar hamda didaktik o'yinlar tayyorlash bolalar faolligini oshiradi;
- tarbiya jarayonida rag'batlantirish usullaridan foydalanish, bolalarning mehnat faoliyatidagi kichik yutuqlarini maqtov va ramziy belgilar orqali rag'batlantirish mehnatsevarlikni rivojlantirishda ijobiy natija beradi.

Xalq og'zaki ijodi vositalaridan foydalanish bolalarda mehnatsevarlikni tabiiy shakllantiradi, milliy qadriyatlarga hurmat uyg'otadi va ijobiy xulq-atvorni mustahkamlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Azimova Z.E. 6 yoshdan 7 yoshgacha bolalar rivojlanishidagi o'ziga xosliklar. Toshkent: Fan, 2024.
2. Касимова Д. Б. (2022). Основные принципы создания предметно-развивающей среды. *International Academic Research Journal*, 1(6), 244-248.
3. Kasimova D. B. (2022). Management of the plot-role-playing games of preschool children in the conditions of pre-school education. *Spanish Journal of Society and Sustainability*, 3, 9-11.
4. Касимова Д. Б. (2022, November). Современный подход и новейшие педагогические требования к сюжетно-ролевым играм дошкольников. In *International Scientific and Practical Conference "The Time of Scientific Progress"* (Vol. 1, No. 3, pp. 108-112).
5. Касимова Д. Б. (2022). Специфические мотивы, присущие сюжетно-ролевым играм дошкольников. *Results of National Scientific Research International Journal*, 1(6), 239-243.
6. Kasimova D. B. (2023). Development of professional competence of teacher of preschool education organizations. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 4(2), 46-48.
7. Kasimova D. B., & To'ychiyeva S. R. (2023, January). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat ko'rsatadigan pedagogning kasbiy innovatsion yondashuvi. In *International Conferences* (Vol. 1, No. 2, pp. 417-420).
8. Касимова Д. (2022). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar bilan ta'lim jara'oni interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qullash uslubiyati. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 1(24), 88-90.
9. Касимова Д. Б. (2021). Теоретические основы вербальных ассоциаций как средства развития смысловой стороны речи. *Экономика и социум*, 10(89), 737-740.
10. Kasimova D. B. (2021). Content and types of interactive games. *Экономика и социум*, 1-1(80), 119-120.
11. Касимова Д. Б., & Эргашева Д. (2023, October). Интерактивные игры в дошкольно-образовательных организациях. In *International Scientific Conference "Innovative Trends in Science, Practice and Education"* (Vol. 2, No. 8, pp. 40-45).
12. Chorieva D. (2023). Bolalarda kreativlik qobiliyatini rivojlantirish. *Technical Science Research in Uzbekistan*, 1(5), 265-270.
13. Чориева Д. А. (2021). Методы и приемы работы с агрессивными детьми. In *Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста* (pp. 152-161).
14. Choriyeva D. (2023). Oila va maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshiriladigan ijtimoiy vazifalar. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(32).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №2(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.